



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 1 -2 апрель

Бухоро - 2021

qo‘ying», «Bo‘sh joylarni to‘ldirib ko‘chiring!», «Shunday sonlarni tanlab olingki, tengliklar, tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lsin» kabi mazmundagi o‘quv topshiriqlarning barchasida tenglik va tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lishi uchun sonlarni to‘g‘ri maqsadga muvofiq holda tanlash masalasi qo‘yiladi.

Quyida shu topshiriqlarning mukammalroq ko‘rinishi hisoblangan tenglik, tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lishi uchun sonlar, amal ishoralari, qavslarni to‘g‘ri tanlashga doir topshiriqlar ustida ishlash masalasini qarab chiqamiz.

Bunday topshiriqlar yuqorida qayd etilgan 1-,2-,3-guruh topshiriqlarning umumlashgan ko‘rinishidir. Bunday guruh topshiriqlari qatoriga tenglik, tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lishi uchun a) sonlar, amal ishoralarni; b) sonlar va qavslarni; v) amal ishoralari va qavslarni; g) sonlar, amal ishoralari, qavslarni to‘g‘ri tanlashga doir topshiriqlarni kiritish mumkin.

Topshiriqlarning bunday ko‘rinishlari boshlang‘ich sinf matematika darsligida nihoyatda oz uchraydi. O‘quvchilarni bunday topshiriqlarni bajarishga o‘rgatish natijasida ularda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasi tarkib topadi. O‘quvchida sezgirlik, sabr-matonat, maqsad sari intilishlik, qat‘iylik kabi xislatlar tarbiyalanadi.

I sinfning oxirgi choragida o‘quvchilarni amal ishoralari (+ yoki -) va sonlarni tanlab qo‘yishi natijasida to‘g‘ri sonli tenglikni hosil qilishga doir topshiriqlarni bajarishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini o‘stirish mumkin.

Topshiriq: Yozuvlar to‘g‘ri bo‘lishi uchun «+» yoki «-» ishorasini va tushib qolgan sonni topib qo‘ying.

$$\begin{array}{ll} 20 \dots\dots = 30 & 12 \dots\dots = 12 \\ 15 \dots\dots = 10 & \dots\dots 18 = 18 \end{array}$$

Bunday topshiriq o‘quvchi tafakkurini o‘stirishga qaratilgan ijodiy mazmundagi topshiriq bo‘lib, uni bajarishda o‘quvchidan ancha bilim va mahorat talab qilinadi. O‘quvchi tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun «bo‘sh katakcha»ga mos keluvchi sonni va nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri keluvchi amalni tanlay bilishi kerak.

Albatta bunday ko‘rinishdagi topshiriqlarni bajarish bo‘yicha o‘quvchilarda tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun sonlarni to‘g‘ri tanlay bilishga hamda tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun amal ishoralarini to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi kerak. O‘quvchi topshiriqni bajarar ekan, u ikki xil mulohaza yuritishi mumkin: a) dastlab «daricha» o‘rniga son tanlab, (masalan, 10 soni) so‘ngra amal ishorasini (qo‘shishni) qo‘yadi; b) dastlab amal ishorasi (masalan, qo‘shishni) tanlab, so‘ngra unga mos keluvchi «daricha» o‘rnidagi son (10)ni topadi. Topshiriqni bajarishda qiynalgan o‘quvchiga o‘qituvchi son yoki amal tanlashga yordam berishi lozim.

Ikkinchi sinfda bunday mazmundagi topshiriqlarni 100 ichidagi sonlar ustida «qo‘shish» yoki «ayirish»; «ko‘paytirish» yoki «bo‘lish» amallari ishtirokida bajarish o‘quvchining ijodiy mazmundagi topshiriqlarni mustahkamroq o‘rganib olishlariga imkoniyat beradi. Shuningdek ikkinchi sinf o‘quvchilariga tenglik yoki tengsizliklar hosil bo‘lishi uchun nuqtalar o‘rniga biror arifmetik amalni hamda qavslarni o‘rinli qo‘yishga doir topshiriqlarni bajarishni tavsiya qilish o‘quvchi biluv faoliyatining shakllanishiga muhim vosita hisoblanadi. Bunday topshiriq namunalarini keltiramiz: Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi amal ishorasini va qavslarni shunday topib qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$\begin{array}{ll} \text{a) } 12 \dots 8 \dots 3 = 1 & \text{v) } 8 \dots 9 \dots 3 = 24 \\ \text{b) } 15 \dots 3 \dots 2 = 10 & \text{g) } 18 \dots 2 \dots 0 = 0 \end{array}$$

Albatta bunday topshiriqlarni tuzish jarayonida o‘qituvchi oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish talabiga qat‘iy rioya qilishi maqsadga muvofiq. Dastlab arifmetik amallarni tanlashda o‘qituvchi tavsiyasiga ko‘ra «qo‘shish» yoki «ayirish»; «ko‘paytirish» yoki «bo‘lish»; ishoralarni qo‘llash kerakligi aytiladi. Keyinchalik o‘quvchiga amallarni tanlash mustaqil ravishda topshiriladi.

Bunday ijodiy mazmundagi topshiriqlar o‘quvchi tafakkurini o‘stirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qizig‘i shundaki, amal ishoralari va qavslarni turlicha qo‘llab, bir necha variantli to‘g‘ri tengliklarni hosil qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan b) misolning turli yechimini ko‘raylik:

$$\begin{array}{l} \text{1-variant: } (15:3) \cdot 2 = 10 \\ \text{2-variant: } 15 - (3+2) = 10 \end{array}$$

3-,4-sinflar matematika darslarida tenglik, tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lishi uchun sonlar, amal ishoralari, qavslarni o‘rinli tanlashga doir topshiriqlarning yuqorida keltirilgan barcha ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin. Bu esa o‘qituvchiga bunday mazmundagi topshiriqlarni tuzish va ular ustida ishlash yuzasidan ancha mas‘uliyatli vazifani hal qilishni taqozo qiladi.

Quyida shunday ko‘rinishdagi topshiriqlar namunalarini keltiramiz:

| T.r | Topshiriq ko‘rinishi | Qaysi ko‘rinishga mansub | Topshiriq yechimi |
|-----|------------------------------|--|-------------------------|
| | $320 \dots 10 \dots 22 = 10$ | Amal ishoralari, qavslarni o‘rinli qo‘yib to‘g‘ri tenglik hosil qilishga | a) $(320:10) - 22 = 10$ |

| | | | |
|--|------------------------------|--|---|
| | | doir topshiriq | b) $320:(10+22)=10$ |
| | $\dots\dots 120 \dots 2=100$ | Son va amal ishoralarini to'g'ri tanlab, to'g'ri tenglik hosil qilishga doir topshiriq | a) $40+120:2=100$ b) $340-120:2=100$ v) $218-120+2=100$ g) $222-120-2=100$ |
| | $20+\dots-8=24$ | Son va qavslarni to'g'ri tanlab, to'g'ri tengliklar hosil qilishga doir topshiriq | a) $(20+12)-8=24$ b) $20+(12-8)=24$ |
| | $160-\dots+20=120$ | | a) $(160-60)+20=120$ b) $160-(20+20)=120$ |
| | $\dots\dots 2 \dots 20=5$ | Son, amal ishorasi va qavslarni to'g'ri tanlab to'g'ri tengliklar hosil qilishga doir topshiriqlar | a) $200:(2 \cdot 20)=5$ b) $(50:2):20=5$ v) $(27-2)-20=5$ g) $27-(2+20)=5$ |

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni taqqoslashga doir topshiriqlar bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzularga doir bilim, malakalari mustahkamlanib, ularda ijodiy faoliyat tarkib topadi.

ПЕДАГОГИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚИТУВЧИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

М.А. Жумаева,
БухДУ 3-босқич таянч докторанти

***Аннотация.** Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида ўқитиладиган педагогика фанининг ўқитувчи инновацион фаолиятини ривожлантиришидаги ўрни кўрсатиб берилган. Шунингдек, инновацион педагогик фаолиятни ривожлантиришида интерфаол таълим методларининг аҳамияти изоҳланган.*

***Аннотация.** В статье показана роль педагогики в развитии инновационной педагогической деятельности в высшей школе. Объясняется важность интерактивных методов обучения в развитии инновационной педагогической деятельности.*

***Annotation.** This article shows the role of pedagogy in the development of innovative teaching activities in higher education. The importance of interactive teaching methods in the development of innovative pedagogical activities is also explained.*

Таянч сўз ва иборалар: таълим, тарбия, дарс, педагогика, инновация, педагогик фаолият, интерфаол методлар, ўқитиш жараёни, замонавий педагогик технологиялар, ўқитувчининг инновацион фаолияти.

2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонун ёш авлодни тарбиялашнинг асосий истикбол ва йўналишларини белгилаб берди. Унда қўйилган асосий масалалардан бири таълим-тарбия жараёнига замонавий педагогик технологияларни қўллаш ҳисобланади. Дарҳақиқат, замонавий педагогик технологиялар таълим жараёнини унумдорлигини оширади, ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш жараёнини шакллантиради, ўқувчиларда билимга эҳтиёж ва қизиқишни оширади, билимларни мустаҳкам ўзлаштириш, улардан амалиётда эркин фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиради.

Педагогик технологияга асосланган таълим жараёнида ўқитувчи ва талаба фаолияти доираси аниқ белгиланади, таълимни ташкил этишнинг аниқ технологияси кўрсатилади. Ушбу ишларнинг барчаси педагогик фаолиятда бажарилади. Педагогик фаолиятга тайёргарлик даражасини таъминлашда эса олий таълим муассасаларида ўқитиладиган педагогика фанининг зиммасига тушади. Шу маънода ўқитувчининг инновацион фаолиятга йўналтиришда илғор педагогик технологияларни амалда жорий этиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Таълимда технологик ёндашув педагогик жараёнга фаол таъсир этувчи ва унинг самарадорлигини, бир бутунлигини ва муваффақиятини белгилаб берувчи омиллардан ҳисобланади.

Педагогика дарсларида педагогик технологияларни қўллаш муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки педагогика фанини ўқитиш жараёнида талабаларнинг барча ижобий сифатлари, ақлий ривожланишини таъминлайди, талабаларни фаоллаштириш, мустақил ишлашга ўргатиш, таълимнинг кейинги босқичларида ҳам талабаларнинг таълим жараёнининг фаол субъектларига айланишларида муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнига инновацион технологиялар ва интерфаол усулларни қўллашга қизиқиш тобора кенг тус олмақда. Бундай усулларни қўллаш таълим самарадорлиги ва таъсирчанлигини оширади, ўқувчиларда дарс мазмунини теран англаш кўникмасини шакллантиради.

Педагогик таълимда педагогик технологияларга асосланиш ва инновацияларга интилиш, талабаларни фаоллаштиришга қаратилган турли интерфаол услублардан фойдаланиш таълим мақсадини самарали амалга оширишга ёрдам беради. Интерфаол таълим усули – ҳар бир ўқитувчи томонидан мавжуд воситалар ва ўз имкониятлари даражасида амалга оширилади. Бунда ҳар бир талаба ўз мотивлари ва интеллектуал даражасига мувофиқ равишда турли даражада ўзлаштиради.

Интерфаол таълим технологияси – ҳар бир ўқитувчи барча талабалар кўзда тутилганидек, ўзлаштирадиган машғулот олиб боришни таъминлайди. Бунда ҳар бир талаба интеллектуал даражасига эга ҳолда машғулотни олдиндан кўзда тутилган даражада ўзлаштиради.

Интерфаол машғулотларни амалда қўллаш бўйича айрим тажрибаларни ўрганиш асосида бу машғулотларнинг сифат ва самарадорлигини оширишга таъсир этувчи муҳим омил бу инновацион педагогик фаолиятдир.

Таълим жараёнини инновацион усуллардан фойдаланиб ташкил этиш учун, аввало дарснинг режаси ва лойиҳаси аниқ ишлаб чиқилиши зарур.

Дарс лойиҳасини тузишда ўқитувчи ўзининг иш шакллари ва талабаларнинг кўникмани эгаллаш жараёнидаги ишлари доирасини аниқ белгилаб олиши лозим.

Шунингдек, у қандай ўқитиш усулларидан фойдаланиши ҳам муҳим аҳамиятга эга. Фаол танлашда кўпроқ интерфаол усулларга эътиборни қаратиш таълим самарадорлигини оширади.

Интерфаол усулларнинг барчасида ҳам ўқитувчи ва талаба фаолияти ўртасидаги ҳамкорлик, талабанинг таълим жараёнидаги фаол ҳаракати кўзда тутилади. Масалан, бирор бир мавзунини ўргатишда уни моделлаштириш қисмида ўқитувчи талабаларга моделни намойиш қилиш олдида “Ақлий ҳужум” усулидан фойдаланиши мумкин. Яъни ўқувчилар қўйилган муаммони қандай тушунишлари ва кўникмани қандай эгаллашлари мумкинлиги улардан сўралиб, уларнинг фикрлари умумлаштирилади. Бунда талабалар фикри мутлақо танқид қилинмайди.

Амалий бошқарув қисмида ўқитувчи “Бир-бирига ўргатиш” усулидан фойдаланиши мумкин. Бу усул дарсни юқори савияда ташкил этишга имконият яратиб, ўқувчиларнинг ўз фаолиятини танқидий назорат қилиш ва хатоларни бартараф этишга ўргатади. Уни қўллаш куйидагича:

Гуруҳ биринчи ва иккинчи ҳамкор қисмларга бўлинади.

Дарсни ўтиш усулидан фойдаланиб биринчи ҳамкор иккинчисига, иккинчи ҳамкор эса биринчисига ўйин қондасининг қисмларини ўргатади.

Ўқитувчи хоҳловчиларга таълим усуллари воситасида машқ қисмларини аввал тушунтиради кейин кўрсатади. Талабалар ўқитувчи айтган ва кўрсатганларини такрорлайди ва бажаради.

Ўқитувчи аудиторияни назорат қилиш учун ўзига ихтиёрий 2 нафар ҳамкорни танлайди. Ўқитувчи ўз ҳамкорларига ўрганилаётган машқни босқичма-босқич бажартириб кўради. Тушунмаганларини тушуниб ўрганишларига ёрдам беради.

Ўқитувчи аудиториядаги ҳамкорларга биринчи қисмни бир-бирларига ўргатишлари ва бажаришларини айтади. Уларни ҳаракатларини назорат қилиб, камчиликларни бартараф этишга ёрдамлашади. Шундан кейингина навбатдаги босқичга ўтилади. Ўқитувчининг ҳамкорлари эса аудиторияни назорат қилишда ўқитувчига ёрдамлашади.

Бу иш усули дарснинг бошқа қисмларини ҳам бажаришда давом этади. Бу талабаларни бир-бирига ва ўзига талабчан бўлишга, хатоларни ўз вақтида бартараф этишга, ишни танқидий баҳолай билишга ўргатади.

Тушунчаларни текширишда ўқитувчи турли интерфаол усуллар (“Бумеранг”, “Чархпалак”, “Ақл чархи” ва бошқалар)дан фойдаланиши мумкин. Масалан, “Чархпалак” усули. Талабалар гуруҳларга бўлинади ва уларга топшириқлар ёзилган варақа тарқатилади.

Талабалар топшириқни бажарганларидан кейин уларнинг ишлари гуруҳдаги бошқа талабаларга тарқатилади. Улар тегишли ўзгартиришлар киритганларидан кейин яна бошқа талабаларга берилади ва шу тарзда талабаларнинг ҳар бирининг иши гуруҳдаги барча талабалар кўлидан ўтади ва охири ўзига қайтади. Ҳар бирлари ўзлари нуқтаи назаридан ишга ўзгартиришлар киритишлари мумкин. Кейин ўқитувчи тўғри жавобни кўрсатади. Бу усулда талабалар ижодий фикрлашга, ўз фикрларини эркин баён этишга ва ўз камчиликларини билиш имкониятига эга бўлади.

| | |
|--|----|
| N.B.Adizova, H.Xudoyberdiyeva. O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI | 62 |
| A. E. Ashurova, E. D. Davlatovna. BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEKNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI | 64 |
| F. M. Qosimov, M. F. Ibrohimova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO‘LLASHDA TA‘LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI..... | 66 |
| U.Sh. Tog‘ayeva, G.N. Roziqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH..... | 67 |
| F. N. Abdullayeva. PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI | 69 |
| Sh.Y. Yusufzoda, X.Y. Yusufzoda. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI | 71 |

IV SHU‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....74

| | |
|--|-----|
| Сахновская Елена Геннадьевна. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ..... | 74 |
| Hamroyev A. R., Hasanova M. A., Toyirova N. M. BIRINCHI SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA YOZUV QUROLLARIDAN FOYDALANIB, CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI..... | 77 |
| Яценко Владимир Сергеевич. ГЕОГРАФИЯ КУЛЬТУРЫ ИГРУШКИ КАК ВАЖНЫЙ ПРАКТИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ..... | 78 |
| Ш.Бабаева. МОДЕЛИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ ПРОЕКТИРОВАНОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ | 81 |
| Б.С.Жамилова. БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ПЕДАГОГИК ТА‘LIM ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ..... | 83 |
| Д. Ш.Джуроева. МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ..... | 86 |
| Узакова А.Б., Рохатова З.И., Алимова А.Н., Фазилова Н.С., Бабаева Ш.Б. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ | 90 |
| G. M. So‘fiboyeva. KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEOMETRIK FAZOVIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USLUBI | 92 |
| Sh.U.Sariyev. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA O‘QISH VA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI..... | 95 |
| G.T.Cho‘lliyeva, K.Q.Siddiqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH..... | 96 |
| M. J. Saidova. TA‘LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI | 98 |
| G. E. Saidova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI..... | 101 |
| M. J. Saidova. MASOFAVIY TA‘LIMDA O‘QITISH IMKONIYATLARI VA USULLARI | 102 |
| G. E.Saidova, A. Sh. Qoryog‘diyeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH | 105 |
| O‘. Olloqova, G. Murodova. MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH | 106 |
| M. R. Hamroyeva, F.N. G‘afurova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH..... | 109 |
| G. E. Saidova, S. F. Sanoqulova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA UZUNLIK HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANRITISH, UZUNLIKLARNI O‘LCHASH MALAKALARNI HOSIL QILISH | 112 |
| M. H. Ozodova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI EGALLASH BOSQICHLARI..... | 114 |
| F.M. Qosimov. IJODIY TOPSHIRIQLAR VA ULAR TIZIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ... | 116 |
| N.Adizova, D. Husenova. SINFLARDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI USTIDA ISHLASH..... | 118 |